

HIKOYADA MAVZU VA G‘OYA BIRLIGI MODIFIKATSIYASI

Akhmad Baisov

Chirchiq davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada hikoyada mavzu va g‘oya birligi modifikatsiyasi haqida so‘z boradi. Maqolada jahon adabiyoti namoyondalaridan ingliz adibi Roald Dal haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar; hikoya, g‘oya birligi, modifikatsiya, adabiyot, jahon adabiyoti

MODIFICATION OF TOPIC AND UNIT OF IDEA IN A STORY

Akhmad Baisov

Researcher of Chirchik State Pedagogical University

Abstract. The article talks about the modification of the topic and idea unit in the story. The article talks about the English writer Roald Dahl, one of the representatives of world literature.

Keywords; story, unity of idea, modification, literature, world literature

МОДИФИКАЦИЯ ТЕМЫ И ЕДИНИЦЫ ИДЕЙ В ИСТОРИИ

Ахмад Байсов

научный сотрудник Чирчикского государственного педагогического университета

Абстракт. В статье говорится об изменении темы и идеиной единицы в рассказе. В статье говорится об английском писателе Роальде Дале, одном из представителей мировой литературы.

Ключевые слова; сюжет, единство идеи, модификация, литература, мировая литература

Kirish. XX asrning boshlarida yashab ijod qilgan ingliz adibi Roald Dalning hikoyachilikdagi mahorati shundan iboratki, u adabiy jamoatchilikda “omadi yurishgan yozuvchi” sifatida shuhrat qozonadi. Adib 1942 yildan boshlab ixcham novellarlar yoza bshlaydi. Ikkinci jahon urushini o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, uchuvchi sifatida qatnashib, hayotning pastu balandlarini boshidan kechiradi. Qariyb o‘zbek adabiyotining hikoyanavisi A.Qahhor bilan bir davrda badiiy adabiyot olamiga qadam qo‘yadi. Yozuvchilikning mashaqqatlari va iztirobli urush manzaralari Rolad Dalni psixologik va falsafiy jihatdan yanada mustahkam qilib tarbiyalaydi. Biz ushbu mulohazalarimizni A.Qahhor bilan birgalikda qiyoslab, asoslashga harakat qilamiz. A.Qahhor va Rolad Dalning tasvir metodikasi deyarli bir xil. So‘zga ixcham va siqiq bir tarzda yondashadi. Uslubda tejamkorlik, matnda voqeanning birdan sodir bo‘lishi va asosiy masalaga o‘tish prinsiplari qabarib ko‘rinadi. Ingliz yozuvchisi Roald Dalning “Polkovnikning sovg‘asi” nomli hikoyasida tanqidiy realizmning (Chexov, Qahhor poetik uslubiga xos) o‘ziga xos namunasini ko‘ramiz. Hikoyada bir oilaning Amerikacha yashash tarzi bayon qilinadi. Er-xotin orasidagi ishqiy munosabatlarning darz yetishi, xiyonat va yengil hayotga mukkasidan ketish, alaloqibatda SHAXSni fojeaviy, ruhiy sinishga, xiyonatning natijada qaror topishida polifonik nutq ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Hikoyani o‘ziga xos qissaga mavzu, mantiq bo‘lgulik zalvor borligini sezish qiyin emas:

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

“Amerika – ayollar uchun ulkan imkoniyatlar mamlakati. Hozirda ular butun millat boyligining taxminan sakson besh foiziga egadirlar. Tez orada esa ular butun boylikni o‘z qo‘llariga olishadi. Ajrashish jarayonlari ularga katta miqdorda daromad topishning oson yo‘liga aylanib qolgan. Erning o‘limi ham yaxshigina daromad keltiradi va ayrim xonimlar shu yo‘ldan foydalanishni ma’qul ko‘rishadi. Ular bir kun kelib, sabrlari mukofot bilan taqdirlanishiga ishonishadi; ortiqcha zo‘riqish va qon bosimi o‘z ishini qiladi va bechora er qo‘lida dori solingan shishani ushlaganicha jon beradi.

Yosh amerikaliklar ajrashish va o‘lim tahdididan unchalik ham tashvish chekishmaydi. Yoshlar, hattoki voyaga yetguncha ham sabrlari chidamay uylanib olishadi va o‘ttizdan oshgan paytlarida kamida ikkita sobiq xotinlariga pullarini sovurishga ulgurishadi. Sohibjamollarining farovon hayot kechirishlari uchun erkaklar quldek ishlashadi. Nihoyat, kamolga yetgach, ularning qalbini zerikish va qo‘rquv egallay boshlaydi. Ular kech kirishi bilan barlarga borishadi. Bu yerda viski ichib, bir-birlariga “hayotiy hikoyalar”idan so‘zlashadi.

Bu hikoyalarning mazmuni bir xil. Ularda uchta qahramon bo‘ladi: er, xotin va itvachcha ma’shuq.

Er – sodda va buyuk mehnatkash. Xotin – ayyor va xiyonatkor mavjudot. U itvachcha bilan birga turli nayranglar o‘ylab topadi. Er esa ishonuvchan bo‘lganligi uchun xotinidan shubhalanmaydi. Nahotki bechora umrining oxirigacha shunday yashab o‘tsa? Shunaqa bo‘lsa kerak. Lekin bir daqiqa! Kutilmaganda, er xotiniga shunday zo‘r zarba beradiki, xotin o‘zining mag‘lub bo‘lganligini his etadi”[4].

Hikoyaning ekspozisiyasida badiiy tasvir prinsiplari A.Chexov, A.Qahhor, Sh.Xolmirzayev, U.Hamdam singari masalaga teran kirib borish manerasi namoyon bo‘ladi. Yozuvchi syujetni shu qadar qiziqarli tasvirlaydiki, adib axloq qoidalaridan bir dam nari chekkaga chiqmaydi. Mavjud hayotni qayta ishlab, qiziqarli yo‘sinda yetkazishga harakat qiladi. Chunki yozuvchining maqsadi – er-xotinni biror xiyonat bilan ajratib yuborish emas, oiladagi bir vujudning ikki tomonga ayrib ketishga sabab bo‘lgan vositani ko‘rsatadi. Ruhiy-ijtimoiy tengsizlik oiladagi asosiy masalalarning ildiziga olib boradigan yo‘lda sodir bo‘ladi. Mister va missis Biksbisi ismli er va xotin hayotidan olingan voqelik hquvchini bir o‘trishida asarni mutolaa qilishga yetaklaydi. Chunki hikoyadagi sargo‘zasht-tasvirlar Nyu-Yorkdagi xonardonlardan birida istiqomat qiladigan tish shifokori Mister Biksbisi va Missis Biksbining hayotidan xabar beradi. Er-xotinning bir-biriga xiyonatiga asosiy sabab oiladiga o‘zaro tushunmovchilik va mo‘maygina pul evaziga paydo bo‘ladi. Missis Biksbisi yolg‘on evaziga o‘z eriga xiyonat qilib, chekka shaharda, Baltimorga har oyda tez-tez qatnab, Polkovnik bilan tanish orttirishdan boshlanadi. Yozuvchi syujetni shu qadar ixcham qurganki, mavzuning aktualligi, syujetni va g‘oyani bir-butun tarzda ifodalishiga katta zamin hozirlaydi. E’tibor bering. Yozuvchi hikoyada A.Qahhor kabi dialoglardan shu qadar unumli foydalananadi, uning natijasida uzundan-uzun tasvirlar emas, sahnaviylik (dramadagi harakat) negizida xarakterlar o‘zlarini o‘zlar fosh qilib boradi. Hikoya arxitektonikasida bir-biriga mos keluvchi tasvirlar ko‘p ovozliligi mavjudki, unda har qanday idrok tamoyili muhim ahamiyatga ega. A voqelik ro‘y berish vaqt bilan B hal etilish vaqtigacha hikoyada poetik tasvirlar muvofiqligi yaqqol seziladi. Missis Biksbisi bahonai sabab – Baltimurdagi xolasi Mod bilan umuman uchrashmaydi. Afsuski, Polkovnikning xushtoriga aylangan ayol tabiatidagi o‘zgarishlar shu kecha kunduzda ro‘y berayotgan voqelikdek taassurot uyg‘otadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ingliz yozuvchisi Roald Dalning “Polkovnikning sovg‘asi” hikoyasida badiiy g‘oya uch o‘lchamli olam kecha-bugun-ertaga tarzida namoyon bo‘ladi. Chunki yozuvchi badiiy g‘oyani silliq tarzda ixchamlashtiradiki, o‘quvchi mutolaa jarayonida qiziqarli bir sargo‘zashtni boshidan kechiradi. “Adabiyotshunoslikda badiiy g‘oya to‘g‘risida gap ketganda, eng avvalo, uning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy g‘oyalardan farqli tomonlarini aniqlab olishga to‘g‘ri keladi.

Tahlil va natijalar. Badiiy g‘oya yozuvchining voqelikni badiiy tarzda hissiy aks ettirishdan bunyodga keladi. Badiiylikning yetakchi belgisi bo‘lgan hissiy mazmunni faqatgina badiiy g‘oya yaratishi mumkin. Qadimgi tadqiqotlarda badiiy g‘oyani pafos deb ham atashgan. Badiiy asar pafosi deyilganda qalblarni larzaga soladigan tuyg‘ular dunyosini, to‘lib-toshgan his-hayajonlar olamini, biron narsaga haddan ortiq maftun bo‘lib qolish ma’nolarini tushunganlar. Gezel badiiy g‘oyani ichki “ichki dard” deb baholagan bo‘lsa, Belinskiy “jonli ehtiros” yoki “qudratli istak” deb ta’riflagan[1]. Haqiqatdan ham, badiiy g‘yaning pafos darajasiga ko‘tarilishi asarning qay tariqa ifoda qilinayotganidan dalolat beradi. Yozuvchi Roald Dalning “Polkovnikning sovg‘asi” hikoyasida asosiy voqelik sovg‘a bilan o‘z yechimini topadi. Asosiy uchta qahramonning syujet voqeligida harakatlanishi – mavzu va g‘yaning birligini ta’minalashga qaratiladi:

“Shu zaylda sakkiz yil o‘tdi.

Rojdestvo bayrami yaqinlashayotgandi. Missis Biksbisi Baltimor shohbekatida Nyu-Yorkka qaytadigan poezdni kutib turardi. Hozirgina tugagan visol onlari har galgidan-da yoqimli bo‘lgan va shuning uchun uning kayfiyati a’lo edi. Umuman olganda, Polkovnik bilan muloqotda bo‘lish doimo uning kayfiyatini ko‘tarardi. Bu kishi uni o‘zini butunlay boshqacha, go‘zal ayoldek his qilishiga sababchi bo‘lar, ana shunday paytlarda u shifokor erining qanchalar notavon ekanligini o‘ylardi.

– Polkovnik mana buni sizga berib qo‘yishimni buyurdi, – kimningdir ovozi eshitildi. U yoniga o‘girildi va Polkovnikning qari xizmatkori Uilkinsni ko‘rdi. Uning qo‘lida katta karton quti bor edi.

– Yo Xudoyim! – hayajon bilan xitob qildi missis Biksbisi. – Qanday katta quti! Bu nima, Uilkins? Xat-pat ham berib yubordimi?

– Yo‘q, bermadi, – dedi xizmatkor va qaytib ketdi.

Missis Biksbisi poezdda qutini begona ko‘zlardan yashirdi. Qanday yoqimli – Polkovnikning sovg‘asi. U qutiga bog‘langan ipni yechishga kirishdi. – Ko‘ylak bo‘lsa kerak, – dedi u o‘ziga o‘zi. – Balki, ikkita ko‘ylakdir. Hozir qaramayman. Yaxshisi, siypalab ko‘rib, nimaligini bilishga urinib ko‘raman. Uning

rangi va narxini ham aniqlashga urinaman.

U ko‘zini mahkam yumdi, quti qopqog‘ini ochdi va quti ichidagi narsani paypasladi. Uning qo‘liga shildiroq qog‘oz urildi. Keyin esa xatjildni ushladi. Shildiroq qog‘oz ostiga asta qo‘lini tiqdi.

– Yo, Xudoyim! – xitob qildi u birdan. – Bo‘lishi mumkin emas!

U ko‘zlarini katta-katta ohib, mo‘yna paltoga tikildi va shu zahoti uni qutidan yulqib oldi. Mo‘ynani bor-bo‘yi bilan ko‘rgan missis Biksbining nafasi tiqilib qoldi”[4].

Yozuvchi hikoyadagi syujet qismlarini idroklar ekan, oradan suvdek oqib ketgan umrni 8 yilga qisqartiradi. Chunki bu oraliqda ortiqcha tafsilotlardan ham tiyiladi. Hikoyaning dialogik matn strukturasi yo‘sinda – tasdiq va tasdiq, inkor va tasdiq ifoda xususiyatlari personajlarning haqiqiy qiyofasini ohib beradi. Er-xotinni tutib turgan shunchaki nikoh qaydnomasi bitilgan guvohnomasi ularni rasmiy bog‘lab turadi. Ruhiy-falsafiy bog‘liqlik er-xotin orasida umuman ro‘y bermaydi. “Adabiyotning atomdan kuchli” ekanligini bot-bot ta’kidlagan A.Qahhor nazdida ommaviy adabiyotning yer yuzida asosiy o‘ringa chiqib olishi, bu ham xalqlarning ma’naviy-ruhiy ehtiyoji sabab sodir bo‘lmoqda. Hikoyaning kulminasion nuqtasi shu yerda ro‘y beradi. Missis Biksbining jazmani Polkovnikdan olgan sovg‘asi uning bunday noma‘qbul munosabatiga yakun yasaydi. Chunonchi sovg‘a bitta oiladigi ikkita xiyonatkorga atlganligi bilan yechim topadi. Tish doktori Mister Biksbining ham o‘z ishxonasida yordamchisi bilan don olishib, hayot kechirishi mo‘ynali paltoning ikki ayolga bo‘lib berilishi o‘quvchida xayriohlilik tuyg‘usini emas, aksincha ijirg‘anish, yugurganning emas, buyurganniki degan aqidaga juda-juda mos tushadi. Hikoyadagi asl sabab va oqibat o‘rtasida falsafa ham ayni jarayonda o‘zining qiyofasini to‘laqonli namoyon etadi. “Yaxlit voqelikni tasvirlash asnosida hikoyanavis yo shu voqeanning, yo uning vositasida xarakterning mohiyatini ohib beradi. Hikoyaning ikki tipi bo‘lib, birinchisi ocherklilik (tavsifik-rivoyaviy), ikkinchisida novellistiklik (konfliktli-rivoyaviy) xususiyat usutundir. Adabiyotshunoslikda bularning birinchisini hikoya, ikkinchisini novella deyish amaliyoti ham mavjuj”[3]. Ko‘rinadiki, hikoyaning bu ikki turining ikkinchisi A.Qahhor va R.Dallning poetik izlanishlarida ko‘proq uchraydi. Chunki ularning har bir hikoyasida – voqelik o‘z-o‘zidan yangilik, yangilikning sahnaviyligi, novellistik ruhning ustunligida seziladi. Demak, Roald Dallning “Polkovnikning sovg‘asi” hikoyaидаги butun jamiyatning izdan chiqishi, insoniy muhababtning iqtisodiy tanglik va sho‘xlik bilan o‘rin almashinishi, ma’naviy qadriyatlarning tanazzuli negizida ochiqlansa, A.Qahhor izlanishlarida sobiq ittifoqning yakka hokimligi, jamiyat hayotida, xususan, odamlarning orzu-umidlari bo‘g‘ilgan, qadriyatlari toptalgan, insoniy burch va mas‘uliyatni qullik va mutelik bilan o‘rin almashtirgan qattol tuzum nayranglari egallaydi. Uzundan-uzun tasvir elementlari ro‘y bermaydi. Har ikkala hikoyada vaqt yozuvchi tomonidan ixcham tarzda qisqartiriladi. Bu yerda mazmun emas, tanlangan mavzuning shakliy-uslubiy jihatini nazarda tutmoq joiz.

Hikoya xotimasida qiziq holat ro‘y beradi. Buni yozuvchi Roald Dall atayin shunday epilog bilan yakunlay olganligida deb bilish mumkin:

– Oly nav, – dedi eri. – Rangi ham zo‘r. Bilasanmi, nima? Menimcha, u kamida ikki-uch yuz dollar turadi.

– Ha.

Bu boshlari va panjalari osilib turgan ikkita norka terisi edi.

– Qani, – dedi eri, – ko‘raylik-chi. U yaqinlashib, yoqani xotinining bo‘yniga tashladi va ortiga tisarildi. – Qoyil. Senga juda yarashdi. Har qanday ayolda ham bunday narsa yo‘q, azizam.

– Ha.

– Buni taqib do‘konga borma. Seni puldor deb o‘ylab, narxni qimmat aytishlari mumkin.

– Buni yodimda saqlayman, Siril.

– Aytgancha, Rojdestvoga boshqa sovg‘adan umid qilmay qo‘yaqol. Usiz ham, ellik dollar sarfladim. U qo‘lini yuvish uchun o‘girildi.

– Endi esa, azizam, boraqol. Seni kuzatib qo‘yardim-u, qabulxonada qariya Gormen o‘tiribdi.

Missis Biksbni eshik tomon qadam tashladi. “Bu sudxo‘rni o‘ldiraman, – o‘ylardi u. – hoziroq lombardga borib, mana bu la’nati yoqani uning yuziga uloqtiraman. Menga paltomni qaytarib bermay ko‘rsin. Mana shu qo‘llarim bilan bo‘g‘ib o‘ldiraman!”.

– Senga kechroq borishimni aytdimmi? – so‘radi Siril Biksbni qo‘lini yuvarkan.

– Yo‘q.

– Sakkiz yarimlarda boraman. Yoki to‘qqizda.

- Bo‘pti, – missis Biksbai eshikni taraqlatib yopib chiqib ketdi.
Ayni shu lahzada miss Paltni, erining yordamchisi tushlikka chiqib ketayotgandi.
– Bugun ajoyib kun bo‘lyapti, a? – dedi u jilmayib.
Uning qadam tashlashida g‘aroyib yengillik bor edi va u Polkovnik missis Biksbiga sovg‘a qilgan norka paltoda xuddi qirolichalardek ko‘rinardi”[4].

Hikoyadagi novellaga xos badiiy unsurlar, kutilmagan iprozivatsiya bilan yakunlaydi. Unda missis Biksbiga atalgan norka mo‘ynali paltoning mo‘ynasininga beradi, xolos. Paltoning o‘zini esa tish shifoxanasidagi yordamchisi miss Paltniga tuhfa qiladi. Voqelikning bu tarzda epilogi o‘quvchini hayratga solishi tabiiy. Kutilmagan burilish, insonning oilaga, o‘z hayotiga mehr-muhabbatlari bo‘lishlikni, dunyoning hoyu havaslari o‘tkinchi ekanligdan shahodat beradi. Pirovard natijada, insonning hayotidagi ruhiy-ijtimoiy o‘zgarishlar, yaxshi tomonga o‘sishi, ayniqsa, oilaning muqaddasligini tushunib yetishi tayin. Yozuvchi bir oila timsolida butun jamiyat hayotining inqirozga yuz tutishini idroklash ekan, sizivilizatsiyaning bizga bergen ne’mat deb ataluvchi asl qiyofasi nimalarga olib kelishini o‘quvchiga so‘z va voqelik shaklida tushuntirishdan iboratligi ayonlashadi. Yozuvchi N.Eshonqul bu haqda shunday mulohazalarni ilgari suradi, ya’ni mahorat maktabi borasida: “O‘zbek hikoyachiligidagi maktab yaratish yo ma’lum bir o‘rin qoldirish uchun yuzlab hikoya yozish shartmas. Bitta hikoya bilan adabiyotda o‘ringa ega bo‘lish mumkin. Men Shukur Xolmirzayevning, Abdulla Qahhorning hikoyachilik maktabiga daxl qilmagan holda aytmoqchimanki, ulardan keyingi avlod vakillarida ham hikoya maktabi bor. Endi bu avdiblar kammahsul bo‘lgani uchun maktab yaratmagandek tuyulishi mumkin. Adabiyotda bitta hikoyaning o‘zi bilan maktab yaratgan yozuvchilar bo‘lgan va bundan keyin ham bo‘ladi. “Dashtu dalalarda” hikoyasining o‘ziyoq Murod Muhammad Do’stni o‘zbek hikoyachiligidagi o‘ziga xos yo‘nalishdagi, o‘ziga xos maktabdagisi asar yaratgan, yangi shakl, ohang, ruh olib kirgan adib sifatida tan olishga to‘liq asos beradi”[2]. Darhaqiqat, hikoya yozish osonmi yoki qiyinmi degan parodks yuradi adiblar orasida. Negaki, yozishdan ham, qanday yozish muhimroq ekanligini tushunib yetish lozim. N.Eshonqulni tashvishlantirayotgan masala ham shu haqdadir. XX asrning 70-yillardan keyingi ko‘zga tashlanayotgan sifat o‘zgarishlari G‘arb va Sharq adabiy tafakkurida ham jiddiy yangilanishlarni boshlab berdi. Bu o‘rinda aytish lozim, hikoyaga mavzu tanlash, tanlangan mavzuni g‘oyaviy-badiiy qiymatini to‘g‘ri ifodalash, muammoning sintezini aniqlash, olam va odam muammolariga teran yondashish muhimligini ham taqozo etmoqda. Zero, badiiy nasrning intensiv taraqqiyoti – novellistik ruhning ifoda madaniyatiga sezilarli ta’siri doirasida ro‘y berganligini unutmasligimiz muhim. Ayni paytda, ingliz va o‘zbek hikoyachiligidagi talqin muvofiqligi, sayyor syujet va idrok sarzanishlarida bunday holatning takomili yanada murakkab kartinalarning yuzaga kelishiga katta zamin hozirlashi tabiiydir. Zotan, inson badiiy olami nihoyatda serqirra, va serjilvadir. Undan yangi-yangi g‘oyalar, mavzular topish, iuni hech kimga o‘xshamagan tarzda badiiy jozibada belgilash va ifodalash mahorat bilan bog‘liqligi ham ayni damda haqiqat bo‘lib gavdalananadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To‘rayev D. O‘zbek romanlarida badiiy tafakkur va mahorat muammoasi. –T: “Universitet”. 2001.
2. Nazar Eshonqul. Menden “Men”gacha. –T: “Akademnashr”. 2014.
3. Yo‘lchiyev Q. Nurali Qobulning prozaik mahorati. –T.: “Ma’rifat bitiklari”. 2021.
4. <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/roald-dal/roald-dal-polkovnikning-sov-asi-iko/>